

QO‘QON ADABIY MUHITIDA NODIRA VA UVAYSIYNING LIRIK MEROSI

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Mashrabjonova Robiyaxon

Anotatsiya: Ushbu maqola XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon adabiy muhitida faoliyat yuritgan ayol shoirlar Uvaysiy va Nodiraning lirik merosini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada Qo‘qon xonligining adabiy-madaniy muhitiga qisqacha to‘xtalib, shoirlarning hayoti, ijodiy faoliyati va badiiy uslubi tahlil qilinadi. Uvaysiyning va Nodiraning lirikasidagi asosiy mavzular — muhabbat, hijron, sadoqat, vatanparvarlik va ayol qalbining nozik kechinmalari — ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ularning ijodi o‘zaro solishtirilib, Qo‘qon adabiyotidagi ayol shoirlarning o‘rni va ahamiyati baholanadi. Maqola o‘zbek adabiyoti tarixida ayol shoirlarning merosini qadrlash va o‘rganish uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Adabiy muhit, Nodira, Uvaysiy, g‘azal, ishq, ma‘no nozikliklari, lirik janr.

Abstract: This article is dedicated to the study of the lyrical heritage of female poets Uvaysiy and Nodira, who were active in the literary environment of the Kokand Khanate in the 18th–19th centuries. The article briefly examines the cultural and literary context of Kokand, analyzes the poets’ lives, creative activities, and artistic styles. The main themes of Uvaysiy’s and Nodira’s lyrics — love, longing, loyalty, patriotism, and the subtle emotions of the female heart — are explored. Additionally, their works are compared to assess the role and significance of female poets in Kokand literature. The article provides a scholarly basis for appreciating and studying the legacy of female poets in the history of Uzbek literature.

Key words: Literary environment, ghazal, ardent love/passionate love, subtleties of meaning/nuances of meaning, lyrical genre.

KIRISH

XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon xonligi Markaziy Osiyoning muhim ma‘naviy markazlaridan biri bo‘lib, adabiy hayotning jonlanishi, ijodkorlar davrasining kengayishi va adabiyotga bo‘lgan homiylik kuchayishi bilan ajralib turardi. Aynan shu muhitda ayol shoirlarning adabiy maydonga kirib kelishi tarixiy ahamiyat kasb etadi. Ular orasida Uvaysiy va Nodira o‘zining yuksak iste’dodi, badiiy mahorati va ijodiy jasorati bilan ajralib turadi. Har ikki shoironing lirikasida ayol qalbining nozik kechinmalari, muhabbat, hijron, sadoqat, vatan tuyg‘usi kabi mavzular o‘ziga xos tarzda ifodalangan.

Qo‘qon adabiy muhiti Qo‘qon xonligi davrida ma‘naviy hayotning rivojlanishida Nodira (Komila)ning homiylik faoliyati alohida o‘rin tutadi. Saroyda adabiy davralarning tashkil qilinishi, shoir va adiblarning qo‘llab-quvvatlanishi yangi ijodkorlarning yetishib chiqishiga imkon yaratdi. Ayol shoirlarning ijodiy jarayonga qo‘shilishi ham aynan shu ma‘rifiy muhit bilan bog‘liqdir¹. Qo‘qon adabiy muhiti an‘anaviy lirik janrlarni rivojlantiribgina qolmay, ularni yangi mazmun va ruh bilan boyitdi. Uvaysiy va Nodiraning ijodiy shakllanishida ushbu muhitning bevosita ta’siri seziladi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Qo‘qon adabiy muhitida amalga oshirilgan eng muhim ishlardan biri xalq og‘zaki ijod namunalarini o‘zlashtirish, jamlash borasida ham samarali ishlar olib borilgan. Bu jarayonda ikki tilda ijod qilgan, aruzni, muammo (she’rda fikrni yashirin ifodalash) san’atini mukammal egallagan Uvaysiy, mumtoz she’riyatning hamma janrlarida birday ijod qilgan, mashhur shoira Dilshod (1800-1905) tomonidan ilm-adab va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlari g‘azalxoni, shakar sochuvchi bulbul deb ta’riflangan Nodirabegim ishtirok etganlar va ularning ijod mahorati va qilayotgan ezgu ishlari yosh ijodkorlarga haqiqiy mahorat maktabi bo‘lgan, negaki Qo‘qon adabiy muhitini Nodirabegi ijodisiz tasavvur etish qiyin, chunki u o‘zbek va fors-tojik tillarida jami 10 ming misraga yaqin lirik meros sohibasi, (Nodira taxallusi bilan 180 ta she’r, Maknuna taxallusi bilan 333 ta g‘azaldan iborat devoni ham mavjud), bundan tashqari Nodirabegim muhabbat, sadoqat,

¹ <https://uz.denemetr.com>

vafo kuychisidir. U go‘zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari ohu fig‘onlarini kuyladi. U muhabbat Alloh tomonidan insonlar qalbiga solingan mangu yog‘du ekanligini kuyladi:

Muhabbatsiz kishi odam emadur,

Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et!

Nodirabegim muhabbatni shaxsiy tuyg‘ulardan yuqoriroq ko‘tarib, odamiylik idrok etishga chorlaydi. Nodira insonning eng yuksak fazilati sifatida vafodorlikni tanlaydi va fors-tojik tilida mebosh (vafo) radifli g‘azal ham yozgan.

Uvaysiy she‘riyatining mavzu doirasi keng. Uning devonidagi she‘rlarida ishq-muhabbat, yor-u diyor, visol va hijron, ona va farzand, dunyo va ilohiyot haqidagi rang-barang mavzular talqin etiladi. Uning ko‘p she‘rlarida asosiy lirik qahramon muhabbat o‘tida o‘rtangan ayol sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday she‘rlarda qo‘llangan tasviriy vositalar ham ayol kishining ishqdagi ahvol-ruhiyasini ifodalashga qaratiladi:

Tobsang, ey shaydo ko‘ngul, nogah ani ko‘yig‘a yo‘l,

Ul pari ollida bu majnuni rasvodin gapur².

Shoiraning ko‘pchilik asarlari maxsus sharhlashni taqozo etadi. Ifodalangan xos mazmunni sharhsiz anglash qiyin. Shoira asarlaridagi ishq – keng ma‘nodagi yaralmish va u orqali yaratuvchiga bo‘lgan muhabbatdir. U mahbuba, vahdati vujud, ilohiy birlik haqidagi tushunchalarini izhor etarkan, olam tashqi ko‘rinishidan – moddiy, ichki mohiyati bilan esa – ilohiy, degan tasavvurda turadi. Uvaysiy lirik qahramoni tabiatida xuddi shu maqomdagi oshiq obrazini ko‘ramiz:

Ko‘rub ul donai xoling, dedim domingga sallamno,

Nigohing qatl etar ul chashm hangomingga sallamno.

XULOSA

² [https:// bilimlar.uz](https://bilimlar.uz)

Uvaysiy va Nodira lirikasining qiyosiy tahlilidagi asosiy o'xshashliklardan biri har ikki shoironing lirikasida ayol qalbining nozik tuyg'ulari, muhabbatning samimiy tasviri asosiy mavzularni tashkil etadi. Uvaysiy ko'proq muhabbatning ruhiy iztiroblarini, hijron va sadoqat kechinmalarini tasvirlasa, Nodira lirikasida vatanparvarlik, ma'rifiy g'oyalar, sabr va matonat mavzusi ko'proq ustunlik qiladi. Badiiy tasvir vositalari jihatidan Uvaysiy xalqona, ravon va sodda uslub bilan ajralib turadi, Nodiraning she'rlari esa saroy muhitiga xos nafislik, yuqori badiiy did bilan yo'g'rilgan.

Qo'qon adabiy muhitida Uvaysiy va Nodira ijodi o'zbek adabiyotining yuksak bosqichidir. Ularning lirik merosi ayol shoiralarning badiiy fikr rivojiga qo'shgan ulkan hissassi sifatida qadrlanadi. Uvaysiy va Nodira nafaqat o'z davrining, balki bugungi o'zbek she'riyati taraqqiyotining muhim tayanchlaridan biridir. Ularning poetik merosi o'zbek adabiyoti tarixi va madaniyati uchun bebaho ma'naviy boylik bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [https:// uz.denemetr.com](https://uz.denemetr.com)
2. [https: // bilimlar.uz](https:// bilimlar.uz)
3. Qobilova Z., Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari antalogiyasi. Toshkent: Tamaddun - 2022
4. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6726206>
5. www.ziyo.uz